

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.





JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agrotexnologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 донa чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibridd modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarning rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallasgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarning hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....552

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





UO'K: 635.21:631.53:581.1

EKISH CHUQURLIGI VA MINITUGANAK VAZNINING KARTOSHKKA SANTE NAVI PALAK HAMDA ILDIZ MASSASIGA TA'SIRI

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar
instituti tadqiqotchi

E-mail: sayfiddinovm95@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0005-1530-1265>

Annotatsiya. Maqolada kartoshka Sante navining < 5, 6-10, 11-20 va 21-30 g vaznli minituganaklarini 4-5, 6-7 hamda 8-9 sm chuqurlikda ekishning bir tup o'simlikdagi palak va ildiz massasiga ta'siri baholandi. Uch yillik o'rtacha natijalarga ko'ra, 4-5 sm chuqurlik barcha vazn fraksiyalarida nazoratga nisbatan palak massasini 6,1-7,4%, ildiz massasini 9,8-11,1% oshirdi. Eng yuqori ko'rsatkichlar 21-30 g minituganaklar 4-5 sm chuqurlikda ekilganda qayd etilib, palak massasi 330,2 g, ildiz massasi 45,0 g ni tashkil etdi.

Kalit so'zlar: kartoshka, Sante navi, minituganak, ekish chuqurligi, tuganak vazni, palak massasi, ildiz massasi, vegetativ rivojlanish, biomassa.

Аннотация. В статье оценено влияние посадки мини-клубней картофеля сорта Санта массой <5, 6-10, 11-20 и 21-30 г на глубину 4-5, 6-7 и 8-9 см на массу ботвы и корней одного растения. По средним данным за три года посадка на глубину 4-5 см во всех весовых фракциях обеспечила увеличение массы ботвы на 6,1-7,4 %, а массы корней — на 9,8-11,1 % по сравнению с контролем. Наиболее высокие показатели отмечены при посадке мини-клубней массой 21-30 г на глубину 4-5 см: масса ботвы составила 330,2 г, а масса корней 45,0 г на одно растение.

Ключевые слова: картофель, сорт Санта, мини-клубень, глубина посадки, масса клубня, масса ботвы, масса корней, вегетативный рост, биомасса.

Abstract. In this article evaluated the effects of planting minitubers of the Sante potato cultivar weighing <5, 6-10, 11-20, and 21-30 g at depths of 4-5, 6-7, and 8-9 cm on haulm and root mass per plant. According to the three-year mean data, planting at a depth of 4-5 cm increased haulm mass by 6.1-7.4% and root mass by 9.8-11.1% across all minituber weight fractions compared with the control. The highest values were recorded when 21-30 g minitubers were planted at a depth of 4-5 cm, with haulm mass reaching 330.2 g and root mass 45.0 g per plant.

Keywords: potato, Sante cultivar, minituber, planting depth, tuber weight, shoot weight, root weight, vegetative growth, biomass.

KIRISH

Kartoshkani minituganaklardan yetishtirishda o'simliklarning dastlabki rivojlanishi ekish materialining vazni va uni tuproqqa joylashtirish chuqurligiga bevosita bog'liq. Minituganak vazni ozayishi bilan undagi oziqa moddalari zaxirasi ham kamayadi. Bunday tuganaklar chuqur ekilganda niholning tuproq yuzasiga chiqishi uchun ko'proq energiya sarflanib, yer ustki va ildiz tizimining shakllanishi sekinlashishi mumkin. Yirik tuganaklardagi oziqa zaxirasining ko'pligi esa nihollarning chuqurroq qatlamdan o'sib chiqishiga va dastlabki vegetativ rivojlanishiga imkon yaratadi. Shu sababli minituganak vazni va ekish chuqurligini o'zaro bog'liq holda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.





ADABIYOTLAR TAHLILI

W.J.Lommen o'rtacha vazni 0,19-3,00 g bo'lgan beshta minutuganak fraksiyasini 3, 6 va 9 sm chuqurlikda o'rganib, 30 kun davomida eng mayda fraksiyadagi tuganaklarning 5,7 foizi unib chiqmaganini, qolgan vazn fraksiyalarida esa nihollar to'liq shakllanganini aniqlagan. Ekish chuqurligi 3 sm dan 6-9 sm gacha oshirilganda nihollarning tuproq yuzasiga chiqishi kechikib, vazn fraksiyalari o'rtasidagi farq kengaygan. Shuningdek, mayda minutuganaklardan rivojlangan o'simliklarning poya va ildiz massasi yirik minutuganaklarga nisbatan past bo'lgan [3].

Lommen va Struik 0,13-0,25 g dan 2,00-3,99 g gacha bo'lgan minutuganaklarni 79-82 kunlik dala sharoitida taqqoslagan. Eng mayda fraksiyada palakning tuproq yuzasini qoplash darajasi hosil yig'ish davrida 86 foizdan oshmagan. Minituganak vazni ortishi quruq modda va tuganak hosilining ko'payishini ta'minlagan [4].

Uzkaynak va Samanji 6-18 g vaznli uchta fraksiyada bir tupdagi poyalar soni 2-4 dona, tuganak hosildorligi 9-19 t/ga oralig'ida o'zgarganini va yuqori hosildorlik natijalar vazni og'ir bo'lgan minutuganaklarda shakllanganini aniqlagan [6].

Janubiy Korey respublikasi sharoitda gidroponikadan yetishtirilgan kartoshka minutuganaklarni turli xil vazn 0,7; 5,0 va 10,0 g guruhlarida va an'anaviy 40 g bo'lgan urug'lik tuganak bilan taqqoslaganda tuganak hosili nazoratga nisbatan tegishli 55, 75 va 80 foizni tashkil etgan, 0,7 g minutuganaklarda tuganaklarning shakllanishi 6-8 kunga kechikkan [2].

Pokiston davlati sharoitda olib borilgan tadqiqotlarda kartoshkaning Asteriks navi 0,47; 0,84; 2,0; 5,0; 10,0 va 25,0 g vaznli guruhlarda ekib o'rganilganda Eng yuqori natijalar 25,0 g vaznli tuganaklarda qayd etilib, o'simlik bo'yi 73,62 sm, asosiy poyalar soni 4,12 dona va hosildorlik 36,85 t/ga ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichlar 0,47 g tuganaklarda kuzatilib, tegishli 50,55 sm, 1,69 dona va 22,01 t/ga bo'lgan. Yirik tuganaklar mayda tuganaklarga nisbatan o'simlik bo'yini 45,6 foiz, poyalar sonini 144,5 foiz va hosildorlikni 67,4 foiz oshirgan [1].

TADQIQOT USULLARI VA METODLARI

Tadqiqotlar 2023-2025 yillarda Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida joylashgan O'zbekiston-Koreya kartoshka urug'chilik markazining himoyalangan net-house maydonlari sharoitda olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida kartoshkaning o'rtatezpishar Sante navi hamda < 5, 6-10, 11-20 va 21-30 g vazn fraksiyalariga ajratilgan minutuganaklar olindi.

Biometrik o'lchovlar barcha variantlardagi modul o'simliklarda elektron tarozida 0,1 g aniqlikda o'lchandi. Ilmiy -tadqiqotlarimizni umumiy qabul qilingan tavsiyalari va uslubiy qo'llanmalari bo'yicha o'tkazildi [5], [7].

TAHLIL VA NATIJALAR


Palak massasi o'simlikning fotosintetik apparati shakllanishi va assimilatlar hosil qilish salohiyatini tavsiflovchi muhim biometrik ko'rsatkichdir. Uch yillik





natijalar minutuganak vazni ortishi va ekish chuqurligi kamayishi bilan Sante navi palak massasida izchil o'sish kuzatilganini ko'rsatdi (1-rasm).

Ekish chuqurligining palak va ildiz vazniga ta'siri



1-rasm. Turli vaznli kartoshka minutuganaklarini ekish chuqurligining bir tup o'simlik palak va ildiz vazniga ta'siri

Vazn fraksiyalari bo'yicha alohida tahlilda < 5 g minutuganaklar 4-5 sm chuqurlikda ekilganda palak massasi 257,8 g bo'lib, 8-9 sm nazoratdagi 242,8 g ga nisbatan 14,9 g yoki 6,1% yuqori bo'ldi. 6-7 sm variantda bu ko'rsatkich 252,5 g ni tashkil etib, nazoratdan 9,7 g yoki 4,0% ustunlik qayd etdi. 6-10 g fraksiyada 4-5 sm chuqurlikdagi 267,0 g natija nazoratga nisbatan 18,5 g yoki 7,4%, 6-7 sm dagi 263,4 g natija esa 14,9 g yoki 6,0% yuqori bo'ldi.

Muayyan sharoitda vazni 11-20 g minutuganaklarda 4-5 sm chuqurlikda palak massasi 295,9 g, 6-7 sm da 293,4 g va nazoratda 278,6 g ni tashkil etdi. Nazoratga nisbatan ustunlik mos ravishda 17,3 g (6,2%) va 14,8 g (5,3%) bo'ldi. 21-30 g fraksiyada eng yuqori palak massasi 4-5 sm variantda 330,2 g sifatida qayd etildi. Bu qiymat shu vazn guruhining 8-9 sm nazoratidan 20,7 g yoki 6,7% yuqori. 6-7 sm variantdagi 326,4 g ko'rsatkich ham nazoratdan 16,9 g yoki 5,5% ustun bo'ldi.

Ekish chuqurligining umumiy ta'sirini vazn fraksiyalari bo'yicha o'rtachalashtirganda palak massasi 4-5 sm da 287,7 g, 6-7 sm da 283,9 g va





8-9 sm nazoratda 269,9 g ni tashkil etdi. Shunday qilib, 4-5 sm chuqurlik nazoratga nisbatan o'rtacha 17,9 g yoki 6,6%, 6-7 sm esa 14,1 g yoki 5,2% ustunlikni ta'minladi.

Minituganak vaznining ta'siri barcha chuqurliklar o'rtachasi bo'yicha ham aniq namoyon bo'ldi: palak massasi < 5 g fraksiyada 251,0 g, 6-10 g da 259,6 g, 11-20 g da 289,3 g va 21-30 g da 322,0 g ni tashkil etdi. Eng yirik va eng mayda fraksiyalar o'rtasidagi farq 71,0 g yoki 28,3% bo'ldi. Tajribaning eng yuqori varianti - 21-30 g va 4-5 sm (330,2 g) bilan eng past varianti < 5 g va 8-9 sm (242,8 g) o'rtasidagi tafovut 87,4 g yoki 36,0% ni tashkil etdi.

Ildiz massasi kartoshka o'simligining tuproq hajmini o'zlashtirish, suv va mineral oziqa elementlarini qabul qilish imkoniyatini ifodalaydi. Sante navida ildiz massasining shakllanishi palak massasidagi qonuniyatga mos bo'lib, 4-5 sm chuqurlik va yirikroq minituganaklar ustun natija berdi

O'rganilgan variantlar orasida vazni < 5 g minituganaklarda 4-5 sm chuqurlikdagi ildiz massasi 33,4 g bo'lib, nazoratdagi 30,1 g dan 3,3 g yoki 11,0% yuqori bo'ldi. 6-7 sm variant 32,9 g natija bilan nazoratdan 2,8 g yoki 9,3% ustunlik qildi. 6-10 g fraksiyada 4-5 va 6-7 sm chuqurliklarda ildiz massasi mos ravishda 36,0 va 35,4 g ni, nazoratda esa 32,7 g ni tashkil etdi. Nazoratga nisbatan qo'shimcha massa tegishli 3,3 g (10,1%) va 2,7 g (8,3%) bo'ldi.

Ushbu sharoitda vazni 11-20 g fraksiyada 4-5 sm chuqurlikdagi 41,0 g ko'rsatkich nazoratdan 4,1 g yoki 11,1%, 6-7 sm dagi 40,3 g esa 3,4 g yoki 9,2% yuqori bo'ldi. 21-30 g minituganaklar 4-5 sm chuqurlikda ekilganda tajribadagi eng yuqori ildiz massasi - 45,0 g shakllandi. Bu nazoratdagi 41,0 g dan 4,0 g yoki 9,8% yuqori. 6-7 sm variantda 44,4 g natija olinib, nazoratdan 3,4 g yoki 8,3% ustunlik qayd etildi.

Chuqurliklar bo'yicha umumiy o'rtacha ildiz massasi 4-5 sm da 38,9 g, 6-7 sm da 38,3 g va 8-9 sm nazoratda 35,2 g bo'ldi. Demak, 4-5 sm variant nazoratdan o'rtacha 3,7 g yoki 10,5%, 6-7 sm variant 3,1 g yoki 8,7% yuqori natija ko'rsatdi.

Barcha chuqurliklar o'rtachasi bo'yicha ildiz massasi < 5 g fraksiyada 32,1 g, 6-10 g da 34,7 g, 11-20 g da 39,4 g va 21-30 g da 43,5 g ni tashkil etdi. Eng yirik fraksiya eng mayda fraksiyadan 11,3 g yoki 35,2% ustun bo'ldi. Eng yuqori 45,0 g va eng past 30,1 g variantlar o'rtasidagi farq 14,9 g yoki 49,5% ga yetdi. 2023-yildan 2025-yilgacha ildiz massasining ortishi variantlar bo'yicha 5,5-7,1 g oralig'ida bo'ldi.

XULOSA

Kartoshka Sante navining turli vaznli minituganaklaridan o'stirilgan o'simliklarda 4-5 sm ekish chuqurligida palak va ildiz massasi shakllanishi bo'yicha eng yuqori natijani ta'minladi. Eng yuqori ko'rsatkichlar 21-30 g minituganaklarni 4-5 sm chuqurlikda ekishda qayd etilib, bir tup o'simlik palak massasi 330,2 g, ildiz massasi 45,0 g ni tashkil etdi. Shu vazn fraksiyasining 8-9 sm nazoratiga nisbatan palak massasi 20,7 g yoki 6,7%, ildiz massasi 4,0 g yoki 9,8% yuqori bo'ldi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arif M. et al. Impact of different nucleus tuber sizes on growth, yield, and physiology attributes of potato production //Notulae Botanicae Horti Agrobotanici Cluj-Napoca. - 2024. - T. 52. - №. 4.
2. Chang D.C. et al. Mulch and planting depth influence potato canopy development, underground morphology, and tuber yield //Field Crops Research. - 2016. - T. 197. - C. 117-124.
3. Lommen W.J.M. Effect of weight of potato minitubers on sprout growth, emergence and plant characteristics at emergence //Potato Research. - 1994. - T. 37. - №. 3. - C. 315-322.
4. Lommen W.J.M., Struik P.C. Field performance of potato minitubers with different fresh weights and conventional seed tubers: Crop establishment and yield formation //Potato Research. - 1994. - T. 37. - №. 3. - C. 301-313.
5. Nizomov R.A. va boshqalar. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi: uslubiy qo'llanma. Toshkent: Baktria press, 2023.
6. Özkaynak E., Samanci B. Field performance of potato minituber weights at different planting dates: //Archives of Agronomy and Soil Science. - 2006. - T. 52. - №. 3. - C. 333-338.
7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва: Агропромиздат, 1985.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**